

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

Ro'yxatga olindi
№ B 60530700-117
2024yil "26" 06



"TASDIQLAYMAN"
Termiz davlat universiteti
o'quv-usul bo'yicha prorektor
prof. R.To'rayev
2024 yil "26" 06

UMUMIY DEHQONCHILIK VA O'SIMLIKSHUNOSLIK
FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 500 000 - Tabiiy fanlar, matematika va statistika
Ta'lim sohasi: 530 000 – Fizika va tabiiy fanlar
Ta'lim yo'nalishi: 60530700 – Tuproqshunoslik

Fan/modul kodi UDSB208	O'quv yili 2024-2025	Semestr 3/4	ECTS - Kreditlar 4/4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4/4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Umumiy dehqonchilik va o'simlikshunoslik	120	120	240
2.	<p style="text-align: center;">FANNING MAZMUNI:</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda horij tajribasi asosida dehqonchilik va o'simlikshunoslikning rivojlanish tarixi; ilmiy asoslari; begona o'tlar va ularga qarshi kurash; almashlab ekish; yerni ishlash; urug'chilik va ekin ekish; dehqonchilik tizimlari va ekologik muammolari; madaniy o'simliklar va ularning kelib chiqishi; madaniy o'simliklarning tasnifi, botanik va biologik xususiyatlari; navlari, turlari, ekinlarni yetishtirish usullari va agrotexnikasi bo'yicha zamonaviy bilim berishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi - talabalarni tuproq unumdorligini saqlash va oshirish; dehqonchilikda tuproq rejimlarini boshqarish; begona o'tlarga qarshi agrotexnikaviy, kimyoviy va biologik kurash; maydonlarni begona o'tlar bilan ifloslanganlik darajasini aniqlash; almashlab ekishni o'zlashtirish va joriy qilish; tuproqni sifatli ishlash; urug'lik materialni ekishga tayyorlash, ekish muddati, usuli va normasini belgilash; zamonaviy dehqonchilik tizimlarini qo'llash, ekologik holati yomon, buzilgan yerlarni qayta tiklash; o'simliklarning morfologik belgilarini, turlarini aniqlash; ekinlarning rivojlanish fazalari, shoxlanish tiplarini, gul tuzilishlarini fenologik kuzatish; ekinlarning urug'ini tashqi belgilariga qarab aniqlash bilan zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tanishtirish.</p> <p style="text-align: center;">II. ASOSIY NAZARIY QISM (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p style="text-align: center;">II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: (THEMES)</p> <p style="text-align: center;">1-modul. Umumiy dehqonchilik</p> <p style="text-align: center;">1-mavzu. Kirish. Dehqonchilik qishloq xo'jaligining tarmog'i va fan ekanligi.</p> <p style="text-align: center;">Dehqonchilikning maqsadi va vazifalari.</p> <p>Dehqonchilik ishlab chiqarish sohasida va fan sifatida. O'rta Osiyo, xususan, O'zbekiston dehqonchilikning eng qadimiy markazlaridan biri ekanligi haqida asosiy tushunchalar. Mamlakatimizda va dunyoda dehqonchilik fanining rivojlanishi tarixi to'g'risida umumiy tushunchalar</p> <p style="text-align: center;">2-mavzu. Dehqonchilikning qonunlari haqida</p> <p>O'simliklarning hayotiy omillari. Hayotiy omillarning o'simliklar biologik xususiyatlari va yetishtirish sharoitlariga bog'liqligi. Dehqonchilik qonunlari. Tuproqning madaniyligi va unumdorligini o'rganish. dehqonchilikning muhim masalasidir. Tuproqning suv, havo va issiqlik rejimlari va ularni dehqonchilikda boshqarish.</p> <p style="text-align: center;">3-mavzu. Begona o'tlarning biologik xususiyatlari.</p> <p>Begona o'tlar xaqida, Begona o'tlarning keltiradigan zarari, Begona o'tlarning biologik xususiyatlari, Begona o'tlarni xisoblash.</p> <p style="text-align: center;">4-ma'ruza. Begona o'tlarga qarshi kurash usullari</p> <p>Agrotexnik yoki oldini oluvchi choralar, Biologik choralar, Kimyoviy choralar.</p> <p style="text-align: center;">5-ma'ruza. Almashlab ekish</p> <p>Almashlab ekish xaqida, Uzluksiz ekish, Ekinlar yakkaziroatchiligi, Almashlab ekishning ilmiy asoslari.</p> <p style="text-align: center;">6-ma'ruza. Almashlab ekishda oraliq ekinlar, Almashlab ekishning tasnifi</p>			

Intensiv dexqonchilikda almashlab ekishning axamiyati, Almashlab ekishda o'tmishdosh, oraliq va takroriy ekinlar, Almashlab ekishning tasnifi, Almashlab ekishni loyixlash, joriy etish, baxolash.

7-mavzu. Tuproqqa ishlov berish.

Tuproqqa ishlov berish (tuproqni ishlash) ning ilmiy asoslari. Tuproqni ishlashdagi texnologik jarayonlar. Tuproqni ishlash tizimi va uslublari haqidagi tushuncha. Tuproqni asosiy (shudgor) va yuza ishlash. Tuproqqa ishlov berish muddatlari. Paxtachilikda tuproqlarni ishlashning o'ziga xos xususiyatlari. Tuproqlarga eroziyaga qarshi ishlov berish. Ishlov berish sonini kamaytirish (minimallashtirish) haqida tushuncha.

8-ma'ruza. Urug', uning sifat ko'rsatkichlari va ekish.

Urug'. Urug'larning fizikaviy, mexanikaviy ko'rsatkichlari va ularning oldiga qo'yiladigan talablar. Urug'larning tozaligi, unuvchiligi va ekish uchun yaroqligi. Ekishning usullari, muddatlari, chuqurligi va me'yorlari. Ekishning oldiga qo'yiladigan agrotexnikaviy talablar. Vegetatsiya davrida o'tkaziladigan agrotexnikaviy tadbirlar, ularning oldiga qo'yiladigan talablar.

9-ma'ruza. Dehqonchilik tizimlari va ekologik muammolari

Dehqonchilikning bo'z yer tizimi, Dehqonchilikning qurik yer tizimi, Dehqonchilikning shudgor tizimi, Dehqonchilikning oddiy ekin almashlab ekish tizimi, Dehqonchilikning o't dalali almashlab ekish tizimi, Dehqonchilikning qator oralari ishlanadigan ekinlar almashlab ekish tizimi, Sug'oriladigan yerlarda almashlab ekish tizimi.

10-mavzu: Dehqonchilik tizimlarining tarkibiy qismlari

Sug'oriladigan yerlardan unumli foydalanish, Sug'oriladigan yerlarda kam xarajat evaziga yuqori hosil yetishtirish, Tuproqni sho'rlanishdan himoya qilish, botqoqlashishdan va eroziyadan saqlash

11-ma'ruza: Tuproqlarning o'g'itlar va pestitsidlar bilan ifloslanishi va ularni oldini olish

Pestitsidlar haqida, Pestitsidlarning atrof-muhitga ta'siri. Pestitsidlarni solish me'yorlari. Pestitsid turlari.

12-mavzu. Sug'orish, botqoqlikni quritish, yer sho'rini yuvish.

Sug'orish, botqoqlikni quritish, yer sho'rini yuvish. Dehqonchilikda ekologik muammolar.

13-mavzu. Tuproq va suvning bir biriga nisbati.

Tuproqning namlik dinamikasi, tuproqda suvning harakatlanishi, tuproqning havo rejimi

14-mavzu. Sug'orishning o'simliklar ildiz tizimining rivojlanishi va hosildorlikka ta'siri

Sug'orishning o'simliklar o'sishiga ta'siri, sug'orishning o'simlik ildi tuzilishi rivojlanishiga ta'siri, sug'orishning o'simlik hosildorligiga ta'siri.

15-mavzu. O'g'itlash tizimining maqsadi va vazifalari. O'g'itlar hosildorligini oshirish manbai.

O'g'itlash tizimining maqsadi va vazifalari. G'alla ekinlari hosildorligi va o'g'it me'yorli o'rtasidagi munosabat. Qishloq xo'jalik ekinlaridan mineral o'g'itlar hisobiga olinadigan qo'shimcha hosil

2 - MODUL. O'SIMLIKSHUNOSLIK

1-mavzu. "O'simlikshunoslik" faniga kirish

Fanning maqsad va vazifalari. O'simlikshunoslik fanining rivojlanish tarixi. O'simliklarning o'sishi, rivojlanishi va hosildorlik. O'simlikshunoslik fanining tadqiqot usullari. Madaniy o'simliklar va ularning kelib chiqishi. Madaniy o'simliklarning tasnifi.

Urug'larni ekishga tayyorlash va saqlash.

2-mavzu. Donli ekinlar

Donli ekinlarning umumiy tavsifi. Donli ekinlarning botanik va biologik xususiyatlaridamda guruhlanishi. Birinchi guruh don ekinlari. Donning kimyoviy tarkibi. Donli ekinlarning o'sish va rivojlanish fazalari. Kuzgi va bahorgi don ekinlari.

3-mavzu. Bug'doy, javdar, arpa va suli

Bug'doy, javdar, arpa va sulining xalq xo'jaligidagi ahamiyati, kelib chiqishi, tarqalishi, botanik va biologik tavsifi, navlari va agrotexnikasi. Bug'doy turlari. Bahorgi, kuzgi, qattiq, yumshoqbug'doy.

4-mavzu. Ikkinchi guruh don ekinlari. Sholi, tariq.

Tariqsimon don ekinlarining xalq xo'jaligidagi ahamiyati. Tariq, makkajo'xori, ok jo'xor va sholining kelib chiqishi va tarqalishi. Ularning botanik va biologik tavsifi, navlari, turlari, ekinlarni yetishtirish usullari va agrotexnikasi.

5-mavzu. Dukkakli don ekinlari

Dukkakli don ekinlari, ularning xalq xo'jaligidagi ahamiyati. Dukkakli don ekinlarining boshqa ekinlar bilan birgalikda ekishning ahamiyati. Dukkakli don ekinlarining azotfiksatsiyasi.

6-mavzu. No'xat, ko'k no'xat, soya va loviyaning xalq xo'jaligidagi ahamiyati

No'xat, ko'k no'xat, soya va loviyaning xalq xo'jaligidagi ahamiyati kelib chiqishi, tarqalishi, botanik va biologik tavsifi, turlari, navlari, hosildorligi, agrotexnikasi va yetishtirish texnologiyasi.

7-mavzu. Moyli va efirmoyli ekinlar

Moyli ekinlar. Kungaboqar, kunjut, yer yong'oq va maxsarning xalq xo'jaligidagi ahamiyati, kelib chiqishi va tarqalishi. Botanik va biologik tavsifi, turlari, agrotexnikasi.

8-mavzu. Efirmoyli ekinlar. Yer yong'oq, moyli zig'ir, kanakunjut

Yer yong'oq va moyli zig'ir, kanakunjut xalq xo'jaligidagi ahamiyati, kelib chiqishi va tarqalishi.

9-mavzu. Tolali ekinlar

Tolali ekinlar. Dunyo dexqonchiligi va respublikamizda yetishtiriladigan asosiy tolali ekinlar. G'o'za va kanopning xalq xo'jaligidagi ahamiyati, kelib chiqishi, tarqalishi botanik va biologik xususiyatlari, turlari, navlari, agrotexnikasi va yetishtirish texnologiyasi.

10-mavzu. Tuganak va ildiz mevali ekinlar

Tuganak mevali (kraxmal to'plovchi) ekinlar. Kartoshkaning xalq xo'jaligidagi ahamiyati, kelib chiqishi, botanik va biologik tavsifi, turlari, ekish muddatlari, navlari va agrotexnikasi, hosilni yig'ib terib olish texnologiyasi.

11-mavzu. Ildiz mevali (shakar to'plovchi) ekinlar.

Qand lavlagining xalq xo'jaligidagi ahamiyati, botanik va biologik tavsifi, turlari, navlari va yetishtirish agrotexnikasi.

12-mavzu. Poliz ekinlarining umumiy tavsifi.

Qovun, tarvuz va qovoq haqida xalq xo'jaligidagi ahamiyati, botanik va biologik tavsifi, turlari, navlari va yetishtirish agrotexnikasi.

13-mavzu. Yem xashak ekinlari

Yem.xashak ekinlari. Beda va sebaraning xalq xo'jaligidagi ahamiyati, botanik va biologik xususiyatlari, ularning turlari, yetishtirish usullari va agrotexnikasi.

14-mavzu. Bedaning xalq xo'jaligidagi ahamiyati

Beda va uni yetishtirish va uni xalq xo'jaligidagi ahamiyati botanik va biologik xususiyatlari, ularning turlari, yetishtirish usullari

15-mavzu. Beda agrotexnologiyasi

Bedaning almashlab ekishdagi o'rmi. Bedaning kelib chiqishi, tarqalishi botanik va

biologik xususiyatlari, turlari, navlari, agrotexnikasi va yetishtirish texnologiyasi.

III. AMALIY MASHG'ULOTLARI BUYICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR

1-(modul) Umumiy dehqonchilik

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Tuproq unumdorligi va uning turlari.
2. Qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori va sifatli hosil olishda kuzgi shudgorning ahamiyatini o'rganish
3. O'simliklarning hayot omillari va tashqi muhit sharoitiga talabini o'rganish
4. Dalalarni begona o'tlar bilan ifloslanganligini hisobga olish va xaritalash
5. Tuproqning begona o'tlar urug'i bilan ifloslanganligini hisobga olish
6. Begona o'tlarga qarshi kurash choralari
7. Almashlab ekishga umumiy tasnif
8. Urug' va uni ekish
9. O'g'it turlari
10. Rejalashtirilgan hosilni olish uchun tuproqqa solinadigan o'g'it me'yorini hisoblash
11. Gerbitsidlarning solish me'yorini aniqlash
12. Tuproq tarkibidagi tuzlar o'simliklarning o'sish va rivojlanishiga ta'siri
13. Ekinlarini sug'orish usullari
14. Sug'oriladigan yerlarni tekislash yer tekisligining ahamiyati
15. G'o'za maysalarini unib chiqishini xisobga olish.

2-modul. O'simlikshunoslik

1. Donli ekinlarning rivojlanish fazalari. Maysalash, tuplanish, nay o'rash, boshog' chiqarish, gullash va yetilish fazalarini aniqlash.
2. Bug'doy turlarini boshog'i va urug'iga qarab aniqlash.
3. Javdar, suli - asosiy turlari, morfologik xususiyati.
4. Ikkinchi guruh don ekinlarining tavsifi. Makkajo'xorining kenja turlarini aniqlash va navlariga tavsif berish.
5. Jo'xori kenja turlari va morfologiyasi
6. Sholi sistematikasi, morfologiyasi
7. Dukkakli ekinlarning umumiy morfologik xususiyati
8. No'xat va ko'k no'xat - sistematikasi, morfologiyasi
9. Loviya sistematikasi va morfologik belgilari
10. Yem-xashak ekinlari morfologiyasi. Beda - umumiy morfologik belgilari
11. Kartoshka sistematikasi va morfologiyasi
12. Qand lavlagi sistematikasi va morfologiyasi
13. Moyli ekinlar guruhlarini. Kungaboqar sistematikasi va morfologiyasi.
14. G'o'zaning asosiy rivojlanish fazalariva ularning shoxlari va shoxlanish tiplari.
15. G'o'zada gullash va hosil organlarining to'kilish qonuniyatlari. G'o'za gulining tuzilishi.

IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

1-modul (Umumiy dehqonchilik)

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Mamlakatimizda va dunyoda dehqonchilik fanining rivojlanishi tarixi
2. Tuproqning unumdorlik kategoriyalari
3. Sug'oriladigan, melioratsiya qilinadigan va yangidan o'zlashtiriladigan sharoitlarda tuproqni ishlash.
4. Tuproqqa ishlov berish muddatlari

5. Begona o‘tlarning keltiradigan zarari
 6. Tuproqning suv, havo va issiqlik rejimlari va ularni dehqonchilikda boshqarish.
 7. Pestisidlar bilan ishlash tartibi
 8. Begona o‘tlarning keltiradigan zarari
 9. Almashlab ekishning ilmiy asoslari.
 10. Begona o‘tlarga qarshi kurash usullari
 11. Dehqonchilik tizimlari va ekologik muammolar
 12. Begona o‘tlarga qarshi kimyoviy choralar
 13. Almashlab ekish sxemasini tuzish
 14. Almashlab ekishni loyixlash, joriy etish, baxolash.
 15. Urug‘larning tozaligi, unuvchiligi va ekish uchun yaroqligi
 16. Urug‘larning fizikaviy, mexanikaviy ko‘rsatkichlari va ularning oldiga qo‘yiladigan talablar
 17. Dehqonchilikning bo‘z yer tizimi
 18. Sug‘oriladigan yerlardan unumli foydalanish
 19. Tuproqni sho‘rlanishdan himoya qilish
 20. Ekishning oldiga qo‘yiladigan agrotexnikaviy talablar
 21. Pestitsidlarning atrof-muhitga ta‘siri
 22. Gerbitsidlardan foydalanish qoidalari
 23. Sug‘orishning o‘simliklar o‘sishiga ta‘siri
 24. Dehqonchilikda ekologik muammolar.
 25. Tuproqning namlik dinamikasi
 26. Tuproqning suv rejimi
 27. Sug‘orishning o‘simliklar o‘sishiga ta‘siri
 28. Tuproqning havo rejimi
 29. Qishloq xo‘jalik ekinlariga mineral o‘g‘itlarni qo‘llash mudati
 30. Tuproqni ishlash qoidari
- 2-modul. O‘simlikshunoslik**
1. O‘simlikshunoslik fanining rivojlanish tarixi.
 2. Kuzgi va bahorgi don ekinlarining umumiy tasnifi
 3. Moyli va poliz ekinlarning xalq xo‘jaligidagi ahamiyati, biologik, botanik xususiyatlari va agrotexnikasi.
 4. Dukkakli don ekinlarining boshqa ekinlar bilan birgalikda ekishning ahamiyati
 5. Bug‘doy turlariga (yumshoq bug‘doy, qattiq bug‘doy) tasnif
 6. Sulining xalq xo‘jaligidagi ahamiyati
 7. Tariqsimon don ekinlarining xalq xo‘jaligidagi ahamiyati
 8. Dukkakli don ekinlarining boshqa ekinlar bilan birgalikda ekishning ahamiyati
 9. Moyli va efirmoyli ekinlarning umumiy tasnifi
 10. Tariq, makkajo‘xori, ok jo‘xor va sholining kelib chiqishi va tarqalishi.
 11. Dukkakli don ekinlari umumiy tasnifi
 12. Ikkinchi guruh don ekinlari umumiy tasnifi
 13. Kungaboqar, kunjut, yer yong‘oq va maxsarning xalq xo‘jaligidagi ahamiyati, kelib chiqishi va tarqalishi.
 14. Dukkakli ekinlarning botanik va biologik tavsifi, turlari, agrotexnikasi
 15. Yer yong‘oq va moyli zig‘ir, kanakunjut xalq xo‘jaligidagi ahamiyati
 16. Tolali ekinlar umumiy tasnifi
 17. Dunyo dehqonchiligi va respublikamizda yetishtiriladigan asosiy tolali ekinlar.
 18. Loviyaning xalq xo‘jaligidagi ahamiyati, kelib chiqishi
 19. Kartoshkaning xalq xo‘jaligidagi ahamiyati, kelib chiqishi, botanik va biologik tavsifi, turlari.
 20. Beda va sebarganing xalq xo‘jaligidagi ahamiyati

	<p>21. Qand lavlagining xalq xo'jaligidagi ahamiyati 22. Tuganak mevali (kraxmal to'plovchi) ekinlarning umumiy tasnifi 23. Qovun, tarvuz va qovoq haqida xalq xo'jaligidagi ahamiyati 24. Ildiz mevali (shakar to'plovchi) ekinlarning umumiy tasnifi 25. Beda va se barganing xalq xo'jaligidagi ahamiyati, botanik va biologik xususiyatlari, ularning turlari, yetishtirish usullari va agrotexnikasi. 26. G'o'zaning o'sish rivojlanishi va mevashoxlarining tuzilishi. 27. Yem.xashak ekinlarining umumiy tasnifi 28. G'o'za gulining tuzilishi. 29. Ko'p yillik va bir yillik dukkakli o'tlar. 30. G'o'zada gullash va hosil organlarining to'kilish qonuniyatlar.</p> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p>
<p>3</p>	<p style="text-align: center;">VI. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalar</p> <p>Talaba bilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> • dehqonchilikning ilmiy asoslari; o'simliklarning hayot omillari va tashqi muhit sharoiti; dehqonchilik qonunlari; tuproqlarning unumdorlik va madaniylashganlik darajasi; tuproqlarning suv, havo, issiqlik va oziqa rejimlari; begona o'tlarning zarari, biologik xususiyatlari va klassifikatsiyasi; almashlab ekishni taqazo etadigan omillar va klassifikatsiyasi; tuproqni ishlashdagi texnologik jarayonlar; ishlov berish tizimi va usullari; ekin ekish muddati, usullari va normasi; dehqonchilikning ekstensiv va intensiv tizimlari; madaniy o'simliklar va ularning kelib chiqishi; madaniy o'simliklarning tasnifi, botanik va biologik xususiyatlari; navlari, turlari, ekinlarni yetishtirish usullari va agrotexnikasi; umumiy dehqonchilik va o'simlikshunoslikning nazariy va amaliy masalalarini o'rganishda qo'llaniladigan tuproqshunoslik ta'lim yo'nalishiga oid zamonaviy tadqiqot usullari; ulardan oqilona foydalana olish to'g'risida <i>tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)</i> • tuproq unumdorligini saqlash va oshirish; dehqonchilikda tuproq rejimlarini boshqarish; begona o'tlarga qarshi agrotexnikaviy, kimyoviy va biologik kurash; maydonlarni begona o'tlar bilan ifloslanganlik darajasini aniqlash; almashlab ekishni o'zlashtirish va joriy qilish; tuproqni sifatli ishlash; urug'lik materialni ekishga tayyorlash, ekish muddati, usuli va normasini belgilash; zamonaviy dehqonchilik tizimlarini qo'llash, ekologik holati yomon, buzilgan yerlarni qayta tiklash; o'simliklarning morfologik belgilarini, turlarini aniqlash; ekinlarning rivojlanish fazalari, shoxlanish tiplarini, gul tuzilishlarini fenologik kuzatish; ekinlarning urug'ini tashqi belgilariga qarab aniqlash <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi; (ko'nikma)</i> • tuproq rejimlari va uni boshqarish; begona o'tlar va ularga qarshi kurash; ilmiy asoslangan almashlab ekish; tuproqni ilmiy asosda ishlash; ekin ekish; dehqonchilikdagi ekologik muammolar bo'yicha yechimlar qabul qilish; o'simliklarning o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilishi uchun laboratoriya va dala tajriba usullarini o'tkazish; donli, dukkakli-don, moyli, tolali, ildiz va tuganak mevali ekinlar sistematikasini tuzish <i>malakalariga ega bo'lishi kerak. (malaka)</i>
<p>4</p>	<p style="text-align: center;">VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar;

	<ul style="list-style-type: none"> • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5	<p style="text-align: center;">VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat yicha test yoki yozma ishni topshirish.</p>
6	<p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. X.Atabaeva O'simlikshunoslik. Toshkent, 2006. 2. S.Sidiqov, Yu.Ch.Kenjayeov Umumiy dehqonchilik fanidan amaliy mashg'ulotlari. Toshkent, 2016. 3. S.A. Azimboyev Dehqonchilik, tuproqshunoslik va agrokimyo asoslari Toshkent – 2006 4. Yu.Kenjayeov, S.Sidiqov, X.Artikov Umumiy dehqonchilik. O'quv qo'llanma, Toshkent, 2017 5. S.Djumaboyev, S.Nurbayev «Dehqonchilik asoslari» fanidan laboratoriya ishlari va amaliy mashg'ulotlar uchun uslubiy qo'llanma Samarqand – 2023 6. G.Urunbayeva, X.Jo'rayeva, Sh.Teshaboyev «Dehqonchilik ilmiy izlanish asoslari bilan» fanidan tajriba va amaliy mashg'ulotlarni bajarish uchun uslubiy ko'rsatma Andijon-2016 yil. 7. А.И.Беленков, Ю.Плескачев, В.А.Николаев, И.В.Кривсов, М.А.Мазиров Земледелие: Учебник – М., 2015. – 302 с. 8. Z.Xaidmuxamedova, Yo.Qulmurodova. O'simlikshunoslik. Uslubiy qo'llanma. Toshkent, Universitet, 2010. <p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora.tadbirlar to'g'risida”gi 2018 yil 5 iyundagi PQ.3775 –son qarori. 10. D.Yormatova Dala ekinlari biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi. Toshkent, 2000. 11. S Sidiqov , M.Faxrutdinova Tuproqshunoslik va o'simlikshunoslik asoslari. Toshkent, Universitet, 2005. 12. S.Sidiqov . Umumiy dehqonchilik. O'quv qo'llanma, Toshkent, 2005. <p style="text-align: center;">Axborot manbaalari:</p> <ol style="list-style-type: none"> 13. www.lib.tersu.uz 14. www.unilibrary.uz 15. www.hemis.tersu.uz 16. www.lex.uz.
7	Mazkur fanning o'quv dasturi Termiz davlat universiteti o'quv-uslubiy Kengashining 2024-yil 26-iyundagi 11-sonli yig'ilish bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	<p>Fan/modul uchun ma'sullar:</p> <p>M.B.Abramatov - TerDU, “Ekologiya va tuproqshunoslik” kafedrasida mudiri, biologiya fanlari nomzodi, dotsent</p> <p>Saidov Muhamadi – qishloq xo'jalik fanlari nomzodi, dotsent.</p> <p>D.Zayirova – TerDU, “Ekologiya va tuproqshunoslik” kafedrasida o'qituvchisi.</p>
9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>S.M. Boltayev – Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti professori.</p>